ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 811.111'42+811.512.133'42
ORCID: 0009-0000-5290-1116

KABILOVA SAYYORA ABDUKARIMOVNA
Termiz davlat pedagogika
Instituti (PhD) v.b.dots katta o'qituvchisi
E-mail: sayyoramohizodali@gmail.com

PUBLITSISTIK MATNDA EVFEMIZMLARNING KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI SHAKLLANISHI

ANNOTATSIYA. Evfemizmlar, matn ichidagi munosabatlarni aniq va nozik tarzda shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.Ular,xususan,anaforik va kataforik bog'lanishlarda faol ishtirok etib,matnning mazmuni va tuzilishini yanada boyitadi.Anaforik va kataforik munosabatlar,tilshunoslikda matnning ma'no qatlamini mustahkamlovchi asosiy mexanizmlar sifatida qaraladi. Anaforaning o'zi, biror bir so'z yoki ifodaning avvalgi matndan qilingan qaytarilishini ifodalab, matnning uzluksizligini ta'minlaydi.

KALIT SO'Z: *anaforik va kataforik, mexanizmlar, evfemizmlar, tilshunoslik, tema,rema,matn,diskurs..*

ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ СВОЙСТВ ЭВФЕМИЗМОВ В ПУБЛИЦИСТИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ

АННОТАЦИЯ. Эвфемизмы играют важную роль в чётком и тонком оформлении связей внутри текста. Они, в частности, активно участвуют в анафорических и катафорических связях, обогащая содержание и структуру текста. Анафорические и катафорические связи рассматриваются в лингвистике как основные механизмы, усиливающие семантический слой текста. Сама анафора, выражая повтор слова или выражения из предыдущего текста, обеспечивает его непрерывность.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *анафорический и катафорический, механизмы, эвфемизмы, лингвистика, тема, рема, текст, дискурс.*

FORMATION OF COMMUNICATIVE PROPERTIES OF EUPHEMISMS IN PUBLICISTIC TEXT

ABSTRACT. Euphemisms play an important role in clearly and subtly shaping relationships within a text. They, in particular, actively participate in anaphoric and cataphoric connections, further enriching the content and structure of the text. Anaphoric and cataphoric relationships are considered in linguistics as the main mechanisms that strengthen the semantic layer of the text. Anaphora itself, by expressing the repetition of a word or expression from a previous text, ensures the continuity of the text.

KEYWORDS: *anaphoric and cataphoric,mechanisms,euphemisms,linguistics, theme, rheme, text, discourse.*

KIRISH. Kataforik bog'lanish, kelajakda keltiriladigan ma'lumotlarga tayyorlovchi vazifani bajaradi. Bu sohada amalga oshirilgan ko'plab tadqiqotlar, anaforik munosabatlarning semantik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Shunday qilib, evfemizmlar, ayniqsa, anaforik va kataforik bog'lanishlar orqali, matn ichidagi semantik strukturalarni to'g'ri va izchil tashkil qilishda muhim vosita hisoblanadi. Bu bog'lanishlar, tilshunoslikda matnning ma'no yelkalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aniq ko'rsatishda va ularning mantiqiy yaxlitligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

D.A. Kiselevning ta'kidlashicha, anaforik birliklar nafaqat alohida so'z va birikmalarni ifodalashga xizmat qiladigan shakl va ma'no hosil qiluvchi elementlar, balki matnning yaxlitligini ta'minlashda, shuningdek ko'rib chiqilaytgan matnni intertekst bilan bog'lashga xizmat qiladi [Киселев, 2011: 728].

"Tilshunoslikda anaforik xususiyatlarga qaraganda, kataforik xususiyatga kamroq e'tibor qaratildi. Ilgari evfemizmlar matn birligining elementi sifatida ko'rib chiqilmagan, shuning uchun ushbu dissertatsiyada ularni matn birligining elementlari sifatida ko'rib chiqish rejalashtirilmoqda"[Кибрик, 1988; Филлмор, 1985].

"Bir qator manbalarda anafora referentlik jarayonining bir qismi sifatida izohlangan. Referentlik – lisoniy iboralarning voqelik bilan o'zaro bog'liqligi bo'lib, bu nutq xabarlari va ularning tarkibiy qismlarini haqiqiy olamdagi narsalar, vaziyatlar, hodisalar va holatlar bilan bog'lashga imkon beradi" [Падучева, 1985: 7].

Referentlik masalasi tilshunoslik doirasidagi tadqiqotlarda ko'p marotaba tilga olinganiga qaramay, hamon munozarali masalalardan biri bo'lib kelmoqda. .D.Arutyunova,Ye.V.Paducheva,A.D.Shmelev,A.Sullivan kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan [Арутюнова, 1990; Падучева, 1976; Шмелев, 2002; Sullivan, 2009].

"Anafora" atamasi qadimgi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, "yuqoriga yoki orqaga ko'tarish" degan ma'noni anglatgan. Zamonaviy tilshunoslikda ushbu atamaning ta'rifi quyidagicha keltiriladi: "Oldingi so'z bildirgan shaxs yoki narsaga, oldin aytilganga ishora qiluvchi so'z" [Hojiyev, 1974: 23].

Anaforik aloqa (matnning oldingi qismiga havola) olmosh, ravish va leksik takror yordamida amalga oshiriladi. Anaforik jarayon, A.A. Kibrikning fikricha, "bu lisoniy hodisa bo'lib, uning yordamida so'zlovchi tinglovchiga ilgari belgilangan diqqat markazini saqlab qolish, diqqatni bir xil elementga qaratishni davom ettirish buyrug'ini beradi" [Кибрик, 1992: 213].

Metodologiya. Anaforik aloqalar ko'pincha matn ichidagi oldingi va keyingi qismlar orasidagi bog'lanishni ta'minlaydi, bunda keyingi komponent avvalgisiga tayangan holda talqin qilinadi. Bu aloqaning mohiyati shundaki, ikkinchi qism birinchi qismga tayanib, uni izohlash va tushuntirish vazifasini bajaradi. Anaforaning kommunikativ ahamiyati retrospektiv bo'lib, oldingi ma'lumotlarga murojaat qilgan holda yangi predikatsiyaning mavjudligini ko'rsatadi. Bu jarayon, matnning o'zaro bog'liqligini va mantiqiy bog'lanishlarini tushunish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Sh.S. Safarovning ta'kidlashicha, anafora nutqiy tuzilma bo'laklarining mazmunan bog'lanishini ta'minlaydi, u koreferentlik haqida ma'lumot beruvchi lisoniy hodisadir [Safarov, 2008: 186]. Tilshunoslar anafora hodisasiga tavsif berayotib, an'anaga binoan anaforik olmoshlarning matnning oldingi qatorlarida eslatilgan referentini izlashgan. Koreferentlik mazmuni paydo bo'lishi uchun old refentning (antitsidentning) mavjud bo'lishi zarur. Ammo referentning matnda turlicha o'rin olishi mumkinligini ham unutmaslik lozim. Ayrim hollarda olmoshlarning referentini ifodalovchi birliklarni matnning keyingi qatorlaridan izlashga majbur bo'lamiz [O'sha manba, 187].

Anaforik munosabatlar tilshunoslikda tilning semantik va sintaktik tuzilishini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Bu munosabatlar asosan birinchi va ikkinchi qismlar orasidagi bog'lanish orqali shakllanadi. Anaforik aloqalar matnning mantiqiy va strukturaviy birligini ta'minlab, fikrlarning ketma-ketligi va davomiyligini o'rnatadi. Anaforaning lingvistik xususiyatlarini o'rganish, uning qanday qilib tilning umumiy kommunikativ tizimiga kirishishini tushunishga yordam beradi.

V.G. Gak, J. Kleiber, M. Perrй va Yan Xuan kabi olimlar anaforik munosabatlarni o'rganib, bu aloqalarning tilshunoslikda qanday ajralib turishini aniqlaganlar. Ular anaforik aloqalar sintaktik strukturalar, semantik kontseptlar va tilning umumiy diskursiv tizimiga ta'sirini o'rganishgan [Гак, 1972; Kleiber, 1981; Perret, 1994; Yan Huang, 2000]. Yan Xuan, masalan, anaforik munosabatlarning to'rt asosiy jihatini ajratib ko'rsatdi: sintaktik toifa, voqelik bilan bog'liqlik, kontekstual ma'lumotlar va diskursning keng tushunchalari [Yan Huang, 2000].

Anaforik aloqalarni to'g'ri tasniflash uchun quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin:

1. Nominal (otli) anaforalar – bu aloqalarda anafora va antecedent (oldingi referent) nominal ibora yoki ot yordamida ifodalanadi. Anaforik aloqalar ko'pincha olmoshlar, atamalar yoki reflexiv olmoshlar orqali ko'rsatiladi.

2. Fellik anaforalar – bu turda anafora fe'l yoki fe'lli ibora orqali bog'lanadi. Bu yerda birinchi qismlar ikkinchi qismlar bilan sintaktik va semantik jihatdan bog'lanadi, bunda predikatlarning ma'nosi muhim ahamiyatga ega [Yan Huang, 2000].

NATIJALAR. Dissertatsiyaning mazkur bo'limida evfemizmlarning anaforik munosabatlardagi o'rni tahlil

qilinadi. Bu orqali, evfemizmlar matndagi semantik va stilistik aloqalarni qanday shakllantirishi va matnning umumiy strukturasini qanday ta'sir etishini o'rganish rejalashtirilgan. Bu tadqiqot, evfemizmlar va ularning anaforik vazifalarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Misol uchun AQShning sobiq prezidenti Donald Trampning 2017 yil 25-iyuldagi nutqini olamiz:

Trump's Boy Scouts Speech

Apart from using "hell" in front of an audience of thousands of minors, Trump did not stick to that promise. His speech quickly became political.

"You know, I go to Washington," Trump said, "and I see all these politicians, and I see the swamp, and it's not a good place. In fact, today, I said we ought to change it from the word "swamp" to the word "cesspool" or perhaps to the word "sewer"."

Not exactly the message of how to affect constructive change through politics. Trump was just getting warmed up [https://www.wyomingpublicmedia.org/2017-07-25/].

Matnning ushbu parchasida Tramp siyosatchilarni tasvirlash uchun "swamp", "cesspool", "sewer" kabi so'zlardan foydalanadi: "You know, I go to Washington," Trump said, "and I see all these politicians, and I see the swamp, and it's not a good place ("Bilasizmi, men Vashingtonga boraman", dedi Tramp, "va men o'sha siyosatchilarning barchasini va botqoqlikni ko'raman va bu yaxshi joy emas"). Keltirilgan matn parchasida u ma'lum shaxslarning ismini keltirmasdan, ularning hammasini "swamp" (botqoqliklar) deb ataydi.

O'smirlar qarshisida bayonot qilar ekan, u o'zini qanchalik "kuchli" notiq ekanligini, erkinligini ko'rsatadi. Ushbu maqolada evfemizm bir necha bor takrorlanadi, u anafora vazifasini bajaradi, chunki u tinglovchini oldingi jumlaga "qaytaradi" va ular ushbu maqola siyosatchilar haqida ekanligini tushunadi: I see all these politicians, and I see the swamp, and it's not a good place.

Tramp hatto bu evfemizmni ijobiy ma'noga ega bo'lmagan so'zlar bilan almashtirish mumkinligini tushuntiradi: In fact, today, I said we ought to change it from the word "swamp" to the word "cesspool" or perhaps to the word "sewer".

Tarjimasi: Men haliyam "botqoqlik" deb aytdim, aslida "chiqindi o'rasi" yoki "kanalizatsiya" deyishim ham mumkin edi.

Mazkur jumlada anaforik evfemizm ot so'z turkumi bilan ifodalangan. Matn ichidagi so'zlar o'zaro takrorlanib, turli sinomimlar yordamida o'zaro almashadi. Bu jarayon maqolaning umumiy mantiqiy tuzilishini saqlashga va uning semantik yagona mazmunini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yana bir misol sifatida elektron nashrdan olingan matn parchasini sharhlaymiz:

AQShda 60 yoshdan oshgan shaxslar ko'pincha "qariyalar" yoki "qariyalar fuqarolari" sifatida tan olinadi. Bu atamalar, insonlarning hayotining keyingi bosqichlariga nisbatan ishlatiladi, ammo aniq "qariyalik" yoshini belgilash qiyin. Odatda, 60 yoki 65 yoshga kirgan shaxslar, ko'pchilik hollarda, ish faoliyatini yakunlaydilar va bu yoshda pensiyaga chiqishadi. Shu sababli, ular "qariyalar fuqarolari" deb ataladi. AQSh qonunchiligi va jamiyatida bu yoshdagi fuqarolarning maxsus ehtiyojlari inobatga olinadi, ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish, asosan, Ijtimoiy Xavfsizlik tizimi orqali amalga oshiriladi. [https://www.encyclopedia.com/law]

Mazkur matnda qo'llanilgan "senior citizens" evfemizmi "sharafli" yoshdagi odamlarga murojaat qilish uchun ishlatilgan. Maqola ushbu konseptning ta'rifi bilan boshlanadi, xususan – "People in the United States who are more than sixty years of age are commonly referred to as senior citizens or seniors". Tarjimasi: AQShda 60 yoshdan oshgan odamlar sharafli fuqarolar yoki senorlar guruhiga mansub. "Seniors" so'zi ingliz tilida realiya sifatida qo'llanilgan. Bilamizki, AQShda yoshi 60 dan oshgan fuqarolarga, boshqa davlatlar qonuniyatlaridan farqli ravishda, maxsus nafaqa turi belgilanib, ular davlat qaramog'iga o'tadi. Ya'ni ularga ijtimoiy himoya belgilanadi. Shuning uchun ularga "qariyalar" emas, balki "sharafli fuqarolar" sifatida murojaat qilinadi.

TAVSIYALAR. Evfemizm, grammatik jihatdan, turli sintaktik strukturalar orqali ifodalanadi, masalan, sifatlar va ko'plik shaklidagi ot birikmalari yordamida. Bunday ifodalar matnning semantik to'liqligini ta'minlab, o'zaro bog'liqlik yaratishga yordam beradi. Ushbu usul matnning ko'rinishini yanada nozik va maqbul qiladi, shuningdek, o'qish jarayonida mulohaza qilishga imkon yaratadi. Evfemizmlar, shuningdek, muloqotda ma'lum bir xushmuomalalikni saqlab qolish, tilni yumshatish va tushunishni osonlashtirish uchun keng qo'llaniladi.

Navbatdagi misolni tahlil qilamiz:

Marks & Spencer kompaniyasining yangi internet guruhi uchun belgilangan J4 million miqdoridagi "golden hello" mukofoti, Sir Styuart Rozi kompaniyadan ketayotganda to'plagan J8.1 millionlik "xayrli xayrlashish" mukofotini ortda qoldirdi. 2009-yilda, kompaniyaning rahbariyati tomonidan ajratilgan aksiyalardan bir qismini qaytarib berishga qaror qilgan Stiven Sharp va Rozi, investorlar uchun odatiy mukofotlardan bosh tortganlariga qaramay, o'zlarining maoshlari bilan bog'liq kompaniya siyosatiga to'g'ri kelgan holda, olingan bepul aksiyalarni qaytarib berdilar. Rozi, shuningdek, FTSE 100 ro'yxatiga kiritilgan kompaniyaning eng ko'p maosh olgan notijorat rahbari bo'lgan, bu esa ko'plab tanqidlarga sabab bo'ldi. [https://www.theguardian.com/business/2011/jun/09/]

Matnning asosiy mazmuni quyidagicha: "Qiymati 4 million dollardan ziyod bo'lgan Marks va Spenserning yangi internet gurusining oltin salomi janob Styuart Rouzning nafaqaga chiqishi xayrlashuvida 8.1 million dollarga ko'tarildi. 2009 yilda Rouz va marketing bo'limi boshlig'i Stiven Sharp, investorlar qonun bo'yicha ajratilgan ish haqqining ikki barobar miqdorida mukofot pulini olishni rad etganligi uchun, ularning huquqida bo'lgan bepul aksiyalardan bosh tortdi".

"Awards worth" evfemizmi matnda jumlalar aloqasini ta'minlaydi, chunonchi, oldingi matnda "mukofot" muallif tomonidan "golden hello" (oltin salom) tarzida berilgan edi. Mazkur evfemizm ot so'z turkumiga xos bo'lib, takroran ishlatilgan. Shu tarzda evfemizm anafora vazifasida shakllanib, maqolaning semantik yaxlitligini ta'minlagan.

Yana bir tahlil obyekti sifatida inglizcha "The Guardian" gazetasidan maqola parchasini olamiz:

If the extra cash had not been found to add to the J2bn childcare pot set aside by government, then the decision to help women working 16 hours or less would have reduced the money available for those working longer hours.

Low-income working women suffered a big cut in childcare support in April following the government's decision to reduce funding from 80% to 70% of childcare costs [www.theguardian.com/money/2011/october].

Ushbu maqolada muallif evfemizmdan foydalangan holda "kambag'al" so'zini "low-income" (kam daromad) tarzida ifoda etadi. Maqolada kam daromadli ayollarni qo'llab-quvvatlash haqida xabar berilgan. Endi kambag'al oilalar bolani tarbiyalash xarajatlarini qoplashlari mumkin.

"Low-income" evfemizmi matnda bir necha marotaba takrorlangan. To'g'ridan-to'g'ri ifoda matnning oldingi qismida ham qayd etilgan: ... then the decision to help women working 16 hours or less would have reduced the money available for those working longer hours.

Grammatik jihatdan evfemizm sifat va otli birikma bilan ifodalanadi. Shuningdek, muallif maqolaning semantik yaxlitligini va emosional bo'yoqdorligini kuchaytirishi maqsadida evfemizmni anaforik tarzda ifoda etadi.

"Economist" jurnalida chop qilingan maqola parchasini tahlilga tortamiz:

O'tgan oyda Xitoy banklarida naqd pulning yetishmasligi yuzaga keldi. Bu holat Markaziy bankning kutilmaganda yordam ko'rsatishni rad etishiga olib keldi. Bank tizimiga qo'shimcha pul mablag'larini kiritish o'rniga, Markaziy bank o'z faoliyatini cheklab, kredit ta'minotining pasayishiga sabab bo'ldi. Bunday qaror qabul qilishning sabablari hozirgi kunda turli fikrlar va bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Muloyim tarzda bayon etilgan "causing the crunch" – "qarsillab qoldi" evfemizmi "inqirozga uchradi" ma'nosini ifodalaydi. Iqtisodiy inqiroz sababi oldingi jumlada bayon etilgan: ran short of cash – naqd pul yetishmovchiligi. Demak, evfemizm oldingi jumla bilan sintaktik jihatdan birikib, anafora vazifasini bajarmoqda. Grammatik jihatdan evfemiz ot va fe'l birikmasi yordamida shakllangan.

Navbatdagi o'zbekcha misol "Zarafshon" gazetasida chop qilingan Shamsi Nazarovning hayoti haqidagi ocherkdan olindi:

Shamsi aka ko'p kitob o'qigan odam emasmi, onasining poklik haqidagi rivoyat-u matallarining isbotini ulug'lar kitoblarida chuqurroq anglab yetdi. Binobarin, daromadlari katta bo'lmasa-da, amallab kun ko'rsa-da, to'g'rilikda el og'ziga tushgan ota-onasining yo'lidan bordi [Zarafshon, 2022 (23.743)].

Jumlada "kambag'al" so'zining evfimistik shakli "daromadlari katta bo'lmasa-da", "amallab kun ko'rsa-da" kabi birikmalar tarzida berilgan. Semantik jihatdan oldingi jumlaga aloqadorlik, ya'ni uning pok inson ekanligi ta'rifi ifodalangan. Bir mazmundagi iboralarning takrori, anaforik hodisisani shakllantirgan. Natijada, o'quvchiga chuqur ekspressiv ta'sir kuchi hosil qilingan. Birinchi ibora "bo'lmasa-da" inkor so'zi yordamida berilgan. –da ta'kid yuklamasi iboralarning ta'sir kuchini yanada oshirishga xizmat qiladi. Mazkur misolda evfemizmlar inkor shaklidagi birikma va frazeologizm yordamida shakllangan.

Navbatdagi tahlil uchun kun.uz saytining 2017 yil 1-dekabrdagi nashridan olingan ma'lumot:

OITS (SPID) kasalligi haqida juda ko'p eshitamiz. Darhaqiqat, targ'ibot ishlari kuchidan ushbu bedavo xastalikka chalinish sabablari va uning oqibatlari borasida deyarli barcha kishilar boshlang'ich tushunchaga ega. Lekin, shunday bo'lishiga qaramay, kasallangan insonlar soni kamayib qolayotgani yo'q. Demak, jamiyatimizda kasallikni oldini olish bo'yicha hali ko'p harakat qilishimiz zarur. Lekin, ko'pchilik kishilar aynan shu kasallikdan atrofidagi insonlar aziyat chekkanidagina xulosa chiqarmoqda... [http://www.kunuz.uz].

Ottirilgan immunitet tanqisligi sindromi o'ta xavfli, yuqumli kasallik turi bo'lib, uning asorati o'limga olib keladi. Biroq, har qanday nutqda, asosan publisisik matnlarda ushbu kasallik nomi neytrallashtirilib, "bedavo xastalik", "kasallik" tarzida bayon etiladi. Buning dalilini keltirilgan misolda ko'rishimiz mumkin. Matnda "bedavo xastalik" birikmasi "o'limga olib keluvchi kasallik" mazmunini, "kasallangan insonlar" birikmasi esa "ottirilgan immunitet tanqisligi sindromini yuqtirgan shaxslar"ni ifoda etadi. Demak, mazkur matn parchasida qo'llanilgan "bedavo xastalik", "kasallangan

insonlar", "aynan shu kasallik" so'z birikmalari evfemiya vazifasini bajarmoqda. Ularning takroran qo'llanilishi, oldingi jumlani to'ldirib kelishi anafora hodisasini hosil qilmoqda. Grammatik jihatdan evfemiya sifat+ot, olmosh+ot shaklida tuzilgan. Stilisik jihatdan evfemizmlar metonimiya vazifasida kelgan, ya'ni butun o'rniga qism ifoda etilmoqda.

Navbatdagi tahlil misoli "Yangi O'zbekiston" gazetasining 2022 yil 18-apreldagi sonida chop etilgan maqoladan olindi:

So'nggi yillarda mamlakatimizda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, xususan ko'zi ojiz va ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mazkur yo'nalishdagi islohotlarning izchilligi va tizimliligini ta'minlash, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ta'lim olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, ularning jamiyatga moslashuviga ko'maklashish hamda qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi [https://yuz.uz/news/kozi-ojiz-va-zaif].

Mazkur maqolada "ko'zi ojiz", "ko'rishda nuqsoni bo'lgan", "zaif ko'ruvchi", "ular" evfemizmlari "ko'zi ko'r", "xira ko'radigan" ma'nolarini yumshatish maqsadida ishlatilgan. Ular oldingi jumlada keltirilgan "nogironligi bo'lgan shaxs" iborasi bilan semantik jihatdan bog'lanib, anaforik tarzda qo'llanilgan. Grammatik jihatdan ot+sifat, fe'l+ot, sifat+ot, olmosh yordamida shakllangan. Stilistik jihatddan metafora ("ko'zi ojiz", "zaif ko'ruvchi") vazifasida qo'llanilgan.

Ingliz va o'zbek tillari publitsistik matnlarida evfemizmlarning qo'llanilishi doirasida olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, evfemizmlar har qanday publitsistik matn doirasida o'ziga xos vazifani bajarib, nutqning ijobiy, mazmunli ifodalanishi, hissiy ta'sir o'tkazishiga muhim rol o'ynaydi. Matndagi evfemizmlarning tahlili, ularning anafoorik rolini va maqsadli matnning semantik yaxlitligini ta'minlashdagi o'rnini ko'rsatdi. Evfemizmlar, asosan, tilning bog'lovchi elementlari sifatida ishlaydi va matnning semantik to'liqligini saqlashga xizmat qiladi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan, anafoorik vazifada ishlaydigan evfemizmlar ko'pincha grammatik jihatdan otlar va otli birikmalar orqali ifodalanadi. Stilistik jihatdan esa, ular asosan metafora va metonimiya shaklida ko'rinadi. Shu bilan birga, evfemizmlar nafaqat matnning semantik va grammatik strukturasini, balki uning mantiqiy bog'lanishini ham mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Evfemizmlarning anafoorik roli, birinchi qismda keltirilgan ma'lumotning keyingi qismlarda izohlanishiga imkon berib, o'qish yoki tinglash jarayonini yanada aniqroq va izchil qiladi. Metafora va metonimiya kabi stilistik shakllar, evfemizmlarning yanada boy va chuqur mazmunni etkazishda foydalanish imkonini beradi, bu esa matnning izchil va boyligini ta'minlaydi.

Evfemizmlarning anafoorik va katoforik vazifalari matnning ijtimoiy va lingvistik xususiyatlarini aks ettirishda, shuningdek, o'quvchining matnga bo'lgan munosabatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Katofora, anafoaraga qarshi ravishda, matnning keyingi elementlari bilan aloqani ta'minlaydigan vosita sifatida qaraladi. Xalqaro va mahalliy tilshunoslikda chap tomonlama (anafoorik) bog'lanishlarga nisbatan, o'ng tomonlama (katoforik) aloqalar ko'proq tadqiq qilingan. Bu, matn tarkibidagi ma'lumotlarni bir-biriga bog'lash, ularning mantiqiy izchilligini ta'minlash va semantik yaxlitlikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Katoforik bog'lanishlar, xususan, matn strukturasini shakllantirishda va o'quvchi yoki tinglovchining tushunishini osonlashtirishda markaziy rol o'ynaydi.

Publitsistik diskursdagi katafora vazifasidagi evfemizm – bu o'quvchilarni keyingi batafsilroq axborot bayoniga tayyorlashga xizmat qiladigan yumshoq yoki neytral iboralardan foydalanish demakdir. Shu nuqtai nazardan, evfemizmlar mavzuni idrok etishni yumshatishga yordam beradi va o'quvchi yoki tinglovchini murakkab yoki bahsli masalalarni muhokama qilishga tayyorlaydi.

Katoforik aloqalar, o'zaro bog'langan komponentlar o'rtasidagi munosabatlarning xususiyatini yoritadi. Ushbu aloqalar, asosan, tushuntirish aloqalariga o'xshaydi, chunki katoforik munosabatda birinchi komponent ikkinchisining mazmunini taxmin qiladi yoki unga ishora qiladi. Katofora, shuningdek, istiqbolli xususiyatga ega bo'lib, kelajakdagi ma'lumotning mavjudligini keltirib chiqaradi va davomiy aloqalarni ta'minlaydi.

Katoforik munosabatlarning tabiati tilshunoslar o'rtasida munozaralarga sabab bo'lgan. Ba'zi olimlar katoforani inkor etishgan [Kuno, 1975; Bollinger, 1957; Cornish, 1996], boshqa bir qator tadqiqotchilar esa uning ilmiy ahamiyatini ta'kidlagan [Carden, 1986]. Bu bo'yicha turli fikrlar mavjud bo'lib, katoforik aloqaning roli va uning semantik tizimdagi o'rni haqidagi fikrlar hali ham tadqiqotning markaziy mavzusi bo'lib qolmoqda.

"Anafora va kataforani kommunikativ vazifalarni bajaradi. Jumlalarda o'ng va chap tomonlama kommunikativ vazifalarni farqlash nafaqat matndagi jumlalarning nisbiy pozitsiyasi qonuniyatlarini tavsiflash, balki matndagi turli sintaktik tuzilmalarning, shu jumladan, propozitsiyalarning o'zaro ta'sirini tushuntirish uchun ham muhimdir" [Москальская, 1981: 123].

E.V. Samoxvalova o'zining "Kataforik referensiya va uning matndagi realizatsiyasi" nomli dissertatsiyasida ingliz tilida kataforik aloqalarni amalga oshirishning turli metodlarini tahlil qiladi. Ushbu metodlar quyidagicha tasniflanadi:

1. So'zlar, so'z birikmalari va jumlalar orqali aloqani ko'rsatish. Ingliz tilida "this" kabi ko'rsatkichlar, o'zining izohga muhtoj xususiyatlari bilan, aloqaning vositasi sifatida ishlatiladi. Bunday vositalar jumladagi ob'ekt, holat yoki xususiyatlar haqida ma'lumot berishda yordam beradi.

2. Shaxs olmoshidan foydalanish. Kataforik aloqalar uchun shaxs olmoshlari ham muhim vosita hisoblanadi. Bu holatda sintaktik aloqalar ot va shaxs olmoshlarining soni yoki jinsiga qarab tashkil qilinadi.

3. "It" olmoshining ishlatilishi. "It" kabi uchinchi shaxs birlik olmoshi, o'z navbatida, so'zlar yoki iboralarning o'rnini bosuvchi vosita sifatida kataforik aloqani tashkil qiladi.

4. Noaniq olmoshlar. "Some," "any," "every" kabi noaniq olmoshlar va ularning hosilalari, kontekstga qarab, kataforik aloqalarda ishlatiladi va avvalgi ma'lumotlarga murojaat qilishda yordam beradi.

5. O'rin va vaqt ko'rsatkichlaridan foydalanish. "Now," "then," "here," "there" kabi o'rin va vaqt ko'rsatkichlari, matndagi o'rin almashinuvi yoki voqealar ketma-ketligini ko'rsatishda kataforik aloqaning muhim vositalaridir.

6. Keng semantikada ishlatiladigan otlar. Ba'zan katta semantika bilan ta'minlangan otlar kataforik vosita sifatida ishlatiladi. Bunday hollarda, keyingi kontekstda bu otlar aniq bir ma'lumotni ifodalash uchun ishlatiladi.

7. Noaniq artikl va otlar. Ingliz tilida noaniq artikl va otlar kataforik aloqaning ko'rsatkichlari sifatida ishlaydi, bu esa keyingi matnda aniq predikatsiya yoki ob'ektni ifodalashda yordam beradi.

8. Leksik va grammatik vositalar sifatida bog'lovchilar va ravishlar. "Keyin," "keyinchalik," "hozir," "keyingi," "so'ng," "shunga o'xshash" kabi bog'lovchilar va ravishlar, harakatlarni va voqealarni ifodalovchi vositalar sifatida kataforik aloqada ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Steen, G. J., Dorst, A. G., Kaal, A. A., Herrmann, J. B., & Krennmayr, T. (2010). A method for linguistic metaphor identification: From MIP to MIPVU. Amsterdam: Benjamins.

2.Tendahl, M., & Gibbs, R. W. (2008). Complementary perspectives on metaphor: Cognitive linguistics and relevance theory. Journal of Pragmatics, 40(11), 18231864.

3.Thibodeau, P., & Durgin, F. H. (2008). Productive figurative communication: Conventional metaphors facilitate the comprehension of related novel

4.Archer, D., Wilson, A., & Rayson, P. (2002). Introduction to the USAS category

5.system. Benedict project report, October 2002.

6.Baggett, P. (1975). Memory for explicit and implicit information in picture stories.

7.Kabilova Sayyora Abdukarimovna. (2023). THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY EUPHEMISMS. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 2(6), 119–123. Retrieved from https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/225

8. Sayyora, Kabilova. "Metaphor in Newspapers." JournalNX, vol. 7, no. 1, 2021, pp. 210-214.

9.Stylistic Forms Of Euphemisms. (2024). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(5), 215-220. https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/378

10. Кабилова, С. А. (2023). ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК СИЁСИЙ МЕДИАСИ НУТҚИДА ЭФЕМИЗМНИНГ ТЕМАТИК ТАСНИФИ. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1000-1001.

11. Sayyora, K. (2021). Metaphor in Newspapers. JournalNX, 7(1), 210-214.